

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
KUTUBXONASI**

**O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI –
MUSTAQILLIK KO‘ZGUSI**

Toshkent – 2006

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
KUTUBXONASI**

**O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI –
MUSTAQILLIK KO‘ZGUSI**

Konstitutsiyaning 14 yilligi munosabati bilan

Metodik-bibliografik qo‘llanma

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti

Toshkent – 2006

78.342

O' -17

Ilmiy – metodik bo‘lim tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi *N.Anvarova*
Muharrir *H. Mamatraimova*
Mas'ul muharrir *O.Qilichboyev*

O‘zbekiston Konstitutsiyasi – Mustaqillik ko‘zgusi: O‘zbekiston Konstitutsiyasining 14 yilligi munosabati bilan metod.-bibliogr.qo‘ll. /Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi N. Anvarova; Muharrir H.Mamatraimova.-T.:Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2006.- 32 b

KBK 78.342+67.400.1

Huquqiy ong, huquqiy ma’naviyat, huquqiy madaniyatning asosi Konstitutsiyadan iborat. Qomusimiz – ozod va hur vatanimizning demokratik tizim mazmuni ifodasigina emas, balki uni obod qilish yo‘lidagi vazifalarni aks ettiruvchi muhim dasturdir. Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan ushbu metodik-bibliografik qo‘llanma Konstitutsiyaning jamiyatimizdagi o‘rni, Konstitutsiyani anglashimiz, o‘z huquq va majburiyatlarimizni o‘rganishimiz, yosh avlodni Konstitutsiya to‘g‘risidagi bilimlarini shakllantrish va targ‘ib qilishda kutubxona xodimlariga yordam berish maqsadida tuzilgan. Unda kutubxonalarda o‘tkazish mumkin bo‘lgan tadbirlar turkumi haqida ma’lumotlar ham berilgan.

© **Alisher Navoiy nomidagi**
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2006 y.

O‘ZBEK QOMUSI

Eslar edim Buxoriyni, Yassaviyni ham
Ha, Ha ayri tushmagandi xotirotimdan
Faqat ular chalinardi ko‘zimga mubham,
Lekin sira ketmas edi hayolotimdan.

Ham Temurbek ham Ulug‘bek, Alisher, Bobur,
Sizlar tuzgan ul saltanat –Saltanat bo‘ldi .
Ulug‘ tarix Turkistonga cho‘ng guvoh erdi,
Davlat edik, davlat edik u davlat bo‘ldi.

Emukdoshim, ay qardoshim, quloq tut menga,
Ushbu ko‘hna kahkoshonda mag‘rur tutgin bosh.
Sen zaminga loyiqdirsan, zamin ham senga,
Senikidir endi bu yer, seniki quyosh.

Qo‘lingda erk, boshda yalov tilingda surud,
Vataning bor, bola-bog‘chang, or-nomusing bor.
O‘zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,
O‘z Davlating, mamlakating, o‘z Qomusing bor.

MUQADDIMA

Har qanday davlatning yuzi obro‘ e‘tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir.

Islom Karimov

Biron bir mavzuni mushohada qilib uni kengroq yoritishda doimo tarixga murojaat qilib kelganmiz. Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayirlidir, deydi dono xalqimiz. Shunday ekan biz ham bu aqidaga amal qilgan holda bugungi kun mavzusi bo‘lgan Konstitutsiyaning tarixiga murojaat etamiz. Tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz ko‘z o‘ngimizda tarix gavdalanadi. Konstitutsiya yaqin yillarda paydo bo‘lmagan, uning tarixi uzoqqa borib taqaladi. O‘tmishdan bizga ma‘lumki hatto ibtidoiy jamoa davrida ham qonun-qoidalar bo‘lgan va unga amal qilingan, keyinchalik tuzumlar o‘zgarib bu qonun-qoidalar xalqning urfodatlar-yu, turmush an‘analaridan kelib chiqqan holda qonun-qoidalar ishlab chiqilgan edi. Bizga ma‘lumki dastlabki Konstitutsiya AQSHda 1787 yilda qabul qilingan. Keyinchalik boshqa davlatlar ham o‘z Konstitutsiyalarini ishlab chiqishgan.

Konstitutsiya o‘zi nima? degan savolga qo‘llanmaning keyingi sahifalaridan javob olishingiz mumkin. Jahon mamlakatlarning Konstitutsiyalari bo‘lgani kabi O‘zbekistonning ham o‘z Konstitutsiyasi mavjud. O‘zbekiston o‘z Konstitutsiyasiga osonlikcha erishmadi. Bu davrga yetib kelguncha tarixning og‘ir sinovli kunlarini boshdan kechirdi.

O‘zbek xalqining ko‘p avlodlari mustaqillikni orzu qilishgan, ota-bobolarimiz bu yo‘lda kurashib hayotlarini qurbon qilishgan. Bugungi kunda istiqloq hozirgi avlod uchun real haqiqatga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lida hayratlanarli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga hali ko‘p ishlarni amalga oshirish, mustaqillikni avaylab asrash, uning negizlarini

mustahkamlash, O'zbekistondagi barqarorlikni, xavfsizlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash lozim.

Mustaqillik yillarida biz xalqimiz va davlatimizning Konstitutsiyasi ahamiyatini aniq tasavvur qildik va avvalo nimadan voz kechib, nimalarni qo'lga kiritishimizni anglab yetdik. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shu bilan birga uni himoya qiluvchi qalqon jamiyatimizning asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi. Eng muhimi Konstitutsiya tufayli O'zbekiston Respublikasi yangi demokratik davlat sifatida dunyo siyosiy xaritasidan munosib o'rin egalladi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, unda davlatning qiyofasi, jamiyatning xususiyati yaqqol o'z ifodasini topadi. Hayotimizning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimi demokratik tamoyillarga asoslangani, umuminsoniy qadriyatlarning ulug'lanayotgani, fuqarolarning haq-huquq va erkinliklari nechog'lik kafolatlangani hamda himoya qilinayotgani ko'rinib turadi.

Prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsiyamizning mohiyatiga ta'rif berar ekan, shunday deb ta'kidlab o'tgan edi, - "Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech bir odam o'z ijtimoiy shaxsiy hayotini, o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi".

O'tgan davr ichida Konstitutsiyamiz jiddiy hayot sinovlaridan o'tdi. Xalqimiz hayotida bu muhim hujjat asosida asrlar mobaynida yuz berishi mumkin bo'lgan tengsiz o'zgarishlarni amalga oshirdi. Yurtimiz sho'rolar davridan meros bo'lib qolgan chuqur iqtisodiy tanazzuldan qutildi, o'tkazilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohatlar tufayli bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot qaror topib bormoqda. Demokratiya tamoyillariga asoslangan milliy davlatchilik va huquq tizimi shakllanmoqda, ijtimoiy-madaniy soha barqaror rivojlanib, kishilarimizning ma'naviy qiyofasi yangilanmoqda, ularning ongiga istiqloq g'oyasi tobora chuqurroq singib bormoqda, mustaqil yosh

davlatimiz xalqaro jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallamoqda.

Davlatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyamiz vaqt sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi. Hozirda u kundalik hayotimizning rivojlanishi va davlat qurilishida ijtimoiy siyosiy o'zgarishlarga asos soldi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz manfaatini yo'lida xizmat qiladi. Asosiy qonunimiz hatto insoniyatni qamrab olgan ona tabiat, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarigacha qonun himoyasida, chunki u ham inson uchun xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning qabul qilinganligi munosabati bilan maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlari hamda ziyo maskanlari bo'lmish kutubxonalarda ham Konstitutsiyaga bag'ishlab targ'ibot tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Respublika kutubxonalarining vazifasi kitobxonlar diqqatini Konstitutsiyamizni o'rganishga hamda o'z huquq va burchlarini bilishga, qonun-qoidalarga rioya qilishga va uning davlatimiz siyosatida muhim o'rin tutishini keng targ'ib qilishdan iborat.

Bu ishda kutubxonalar adabiyotlar targ'ibotining kitob taqdimoti, ilmiy-amaliy konferensiya, ilmiy amaliy seminar, savol-javob kechalari, davra suhbat, bilimdonlar bellashuvi, mavzuli va munozara kechalari, uchrashuv kechasi, kitob ko'rgazmasi, Konstitutsiya haqidagi nashrlarning obzori singari turli tuman usullaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday tadbirlar turkumini tashkil etish uchun tarixchilar, huquqshunoslar, hokimiyat vakilliklari, idora xodimlari, huquqiy markaz xodimlari, Inson huquqlari bo'yicha Ombudsman vakillari, deputatlar va malakali huquqshunos o'qituvchilarni jalb qilish mumkin.

Ushbu metodik bibliografik qo'llanma kutubxonalarda davlatimiz qonuni bo'lmish Konstitutsiyaga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda kutubxonachilarga yordam berish maqsadida tuzilgan.

HAQIQAT QOMUSI – KONSTITUTSIYANING TARIXI

Inson o‘z hayotini borliqqa, uning qonunlariga e‘tibor bermay tashkil eta olmaydi. Shuning uchun ham u o‘zini kashf qilishga, o‘rganishga, uning xususiyatlarini, sifatlarini me‘yorlarini kengroq bilishga intiladi.

Xo‘sh, Konstitutsiya o‘zi nima? Umuman qonunni bilmasdan, o‘rganmasdan turib yashab bo‘ladimi? Qonun haqida Aflotin o‘zining “Qonunlar” asarida qonun nima degan savolga quyidagicha javob beradi: “Qonunlar kishilarning hatti harakatlari namoyon bo‘ladi xolos, ammo ular tomonidan yaratilmaydi. Qonunlar o‘zining ilohiy ibtidosiga ega, insonning vazifasi esa ularning haqiqiy qoidalarini, talablarini ochib berishdan iboratdir”.

Shunday ekan, biz bugungi mavzuni kengroq yoritish maqsadida dono xalqimiz aytganidek: Moziyga qaytib ish tutmoqchimiz.

Konstitutsiya yaqin yillarda paydo bo‘lgan emas, uning tarixi uzoqqa borib taqaladi. Konstitutsiyaga ta‘rif beradigan bo‘lsak Konstitutsiya lotincha (Consitutsiya) so‘z bo‘lib, u “tuzish”, “tuzuk”, “tuzulish”, “yaratish”, “o‘rnatish” degan ma‘nolarni bildiradi.

Konstitutsiya atamasi qadimda siyosiy tuzum ma‘nosini anglatgan. Konstitutsiya huquqiy davlatning asosiy belgisi hisoblanadi. Unda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy xususiyati, taraqqiyotning bosh mezonlari, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Dunyo tajribasida dastlabki Konstitutsiya AQSHda (1787yil) ishlab chiqilgan so‘ngra Yevropaning boshqa davlatlarida Po‘lsha va Fransiyada (1791 yillarda) qabul qilingan. Bundan oldingi davrlarda qonunlar bo‘lmaganmi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Har bir tuzumning o‘zi ishlab chiqqan qonun qoidalari mavjud bo‘lgan. Tarix sahifalari shuni ko‘rsatadiki, hattoki ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ham jamoa to‘dalari ma‘lum bir qonun-qoidalarga bo‘ysinib yashagan.

Keyinchalik tuzumlar o'zgarib, bu qonun-qoidalar davlatning asosiy qomusiga aylandi. Tarixdan bizga ma'lumki, jahonda ikki shaklda Konstitutsiya mavjud: yozilgan va yozilmagan. Yozilgan Konstitutsiya bir butun asosiy qonun bo'lib, o'z ichiga davlatning ijtimoiy, siyosiy tuzum qonunlarining asosiy yo'nalishlarini aniq tizimda belgilaydi. Yozilmagan Konstitutsiya esa bir qator qonunlar va Konstitutsiyaviy odatlarning yig'indisi bo'lib hisoblanadi.

Konstitutsiyalar tarixiy zaruratning hosilasi bo'lib, har qanday Konstitutsiya muayyan davlat va jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-siyosiy vazifalarni hal etish uchun yaratiladi. Jahon mamlakatlarining o'z Konstitutsiyalari bo'lgani kabi O'zbekistonning ham o'z Konstitutsiyasi mavjud.

O'zbekiston o'z Konstitutsiyasiga erishgunga qadar tarixning og'ir sinovli kunlarini boshdan kechirdi.

Temuriylar sulolasi tarix sahnasini tark etgandan keyin buyuk saltanat turli-tuman nizolar tufayli mayda xonliklarga ajralib ketdi. Bundan foydalangan chorizm armiyasi Turkistonni bosib olib, uni o'zining xom ashyo bazasiga aylantirdi. Mustamlaka xalqda mustaqillik orzusini uyg'otmaslik uchun chor hukumati yetmish yildan ziyod vaqt mobaynida mahalliy aholini ma'rifat va madaniyatdan chetda tutib keldi. Natijada xalqimizning asrlar osha sayqal topgan urf-odatlar, an'analari, qadriyatlar, inson erki va haq-huquqlari poymol etildi. O'sha davrdagi qonunchilik va huquq tizimi shu mazmunga bo'ysindirilgan edi.

Buni 1917 yilda o'rnatilgan Sho'ro imperiyasi davom ettirdi. Bundan keyin ham yurtimizda asriy ezgu rasm-rusumlardan millatni shavqatsizlarcha mosuvo qilishlari, urf-odatlar, hatto milliy kiyimlarni, turkona liboslarni bid'at, eskilik sarqiti deb uqtirishlar to'xtamadi. Eng yomoni esa ta'lim va tarbiya ishida milliy asos yo'q qilib yuborildi. Bunday yo'l tutish kelajak avlodni o'zligini anglashga imkon bermaslik, o'z huquqlarini bilmaydigan mutelarga aylantirish edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil yurtning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Unga qadar amal qilingan Konstitutsiyalar to'grisida bunday deb bo'lmaydi. Chunonchi Sho'ro hukmronligi davrida mamlakatimizda 10 ga yaqin Konstitutsiya joriy qilingan edi. Ular: Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi 1918 – 1920 yillardagi, Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari Konstitutsiyalarida ko'plab demokratik huquqlar belgilangan bo'lsada, asta-sekin ularga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida milliy huquqlar cheklana bordi. O'tmishdagi Konstitutsiyaviy taraqqiyot tajribasiga murojaat etsak, ularning barqaror tusga ega bo'lmaganligi yaqqol namoyon bo'ladi. 1927, 1937, 1978 yillarda sobiq O'zbekiston SSRning Konstitutsiyalari qabul qilindi. Ularda millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqiy deklarativ tavsifda bo'lib qoldi.

1918-yildagi Sho'ro Konstitutsiyasi Oktabr to'ntarishi bo'lganligini tarixiy fakt sifatida mustahkamlash, 1924-yilgi Konstitutsiya barpo etilgan sobiq Sovet Respublikalari Federativ Ittifoqini tasdiqlash uchun qabul qilingan edi. 1927-yilgi sobiq O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi Respublika suvereniteti va uning Sho'ro davlati tarkibiga kirishini, O'zbekiston SSR tashkil etilganligini mustahkamlagan edi.

1936-yilgi sobiq Sho'ro Konstitutsiyasi esa mafkuraviy, siyosiy tizimni mustahkamlashda tarixiy voqealar, chaqiriqlar, shiorlar bilan bog'liq mazmunda ekanligi ko'zga tashlanadi. Jamiyatda Konstitutsiya va huquq siyosatining quroliga aylanish mohiyati bilan ta'sirchan edi.

1936-yilgi Sho'ro Konstitutsiyasi asosida sobiq O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya sobiq Ittifoqning Asosiy Qonundagi mazmunni o'zida to'la ifoda etdi. Bu konstitutsiyalarda ulug' davlatchilik g'oyasining milliy manfaatlardan ustun turishi uning erkin taraqqiyotiga, huquqlariga rahna soldi. Oqibatda, inson huquqlari: tili, dini, urf-odati, an'analaridan bahramand bo'lish erkinligi yo'qotildi. Millat mustaqilligi, erkinligi yo'lida kurashgan o'zbek

xalqining asl farzandlari, yuksak aql va zakovat sohiblari qatag'on etildi.

1977-yili sobiq Sho'ro Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning loyihasi muhokamasi aholida qiziqish uyg'otdi. O'shanda 400 mingdan ortiq taklif kiritildi. Bu taklif odamlarning huquqiy muhitini yaxshilash, qonunsizlik va bedodlikni tugatish kayfiyatidagi hohish-istaklarni ifoda etdi. 1977-yilgi Konstitutsiyada fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga oid moddalar soni 1936-yilgi Konstitutsiyaga nisbatan ko'paydi. "Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyat" degan yangi bob kiritildi. Konstitutsiyada jamiyatning rivojlanishiga oshirib baho berilishi Qonunda belgilangan va amalda bajarilishi lozim bo'lgan huquqlar o'rtasida ziddiyatni keltirib chiqardi. Chunki berilgan huquqlarni amalga oshirish imkoniyati yo'q edi.

Bundan tashqari, bu Konstitutsiya siyosiy manifest vazifasini o'tadi. U mohiyati jihatidan aholini navbatdagi vazifalarni bajarishga safarbar etish, o'tkazilayotgan siyosatni g'oyaviy jihatdan mustahkamlash vazifalarini mujassam etardi.

Oxirgi Sho'ro Konstitutsiyasi yuridik jihatdan kuchli emasdi. Unda bayon etilgan inson huquqlariga taalluqli qoidalar huquqiy kafolatlar bilan mustahkamlanmagan edi, borlari ham rasmiy edi. Konstitutsiyaning amal qilishi qonun tarzidagi me'yorlar bilan cheklab qo'yildi va izdan chiqarildi. Turli ko'rsatma va yo'l-yo'riqlar, Konstitutsiyaviy nazorat va tekshirishning samarali tartiboti mavjud emasdi.

Mazkur Konstitutsiyalarning barchasida proletariyat diktaturasini o'rnatish, davlat organlarini tuzishga sinfiy yondashish va kommunizm qurish asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi. Ular asosan, markazda tayyorlanib, so'ngra mustamlaka qilib olingan o'lkalarga olib kelingan Konstitutsiyalar edi.

Sho'ro davri Konstitutsiyalarida xalq va millat sifatidagi qadriyatlar, hur fikr, g'urur e'tiborga olinmadi. Yo'qotilgan ana shu g'urur, qadr-qimmat, oriyat o'rnini hayotda inson huquqlariga ziyon yetkazuvchi boqimandalik, yulg'ichlik, ta'magirlik egalladi.

Sho‘ro davridagi oxirgi Konstitutsiya inson huquqlari to‘g‘risidagi umumjahon e‘tirof etgan qoidalarga mazmunan zid bo‘lib, uning talablariga javob bermay qo‘ydi. Bunday holatlar O‘zbekistonning 1978-yilgi Konstitutsiyasiga ham taalluqlidir. Natijada Konstitutsiyaviy islohat uchun zarurat tug‘ildi.

Milliy ong, mustaqillik 80-yillarning oxiriga kelib kurtak yoza boshladi. 1989-yilning 21-oktabrida o‘zbek tiliga davlat maqomi berildi. Bu qonun xalq milliy uyg‘onishining ilk amaliy samarasi bo‘ldi. U o‘zbek tilining ko‘p yillar davomida toptalgan haq-huquqlarini tiklashning kafolati bo‘ldi. Ushbu qonun ilm-fanning hamma sohalarini rivojlantirish uchun lozim bo‘lgan sharoitlarni yaratib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo‘lgan ikkinchi sessiyasida Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyada O‘zbekistonning davlat mustaqilligi e‘lon qilindi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Bunda Mustaqillik Deklaratsiyasi va Bayonot asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu Qonun 17 moddadan iborat. Bu hujjatda O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida qo‘ygan ilk qadamlarining huquqiy asosi yaratildi. O‘z mohiyatiga ko‘ra uni Muvaqqat kichik Konstitutsiya deb ta‘riflash mumkin. Mazkur qonunning yutuqlaridan biri birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etildi. Ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan qat‘iy nazar bir xil fuqarolik huquqlariga egaligi hamda ularning Respublika Konstitutsiyasi va Qonunlari himoyasida bo‘lishi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq O‘n birinchi sessiyasida (1992-yil 8-dekabr) huquqiy va xalqaro ahamiyatga molik hujjat – Mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi. U iqtisodiyotda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ma‘naviy hayotda chuqur islohatlar o‘tkazish uchun puxta huquqiy poydevor yaratdi.

Konstitutsiyada eng avvalo, o‘zbek millatining tarixiy an’analari, huquqiy tafakkuri o‘z aksini topgan. Qadimiy “Avesto”, so‘g‘d hujjatlari, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Burxoniddin Marg‘oniyning “Al-hidoya”si, Amir Temurning “Temur tuzuklari” kabi tarixiy manbalar mamlakatimiz Konstitutsiyasini yaratishda zamin bo‘lgan.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi jahon hamjamiyatining inson huquqlari sohasidagi yutuqlarini to‘la o‘zida mujassam qiladi. Ushbu Konstitutsiya inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasidagi barcha muhim qoidalarni: insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, mulkdor bo‘lish huquqi va boshqa shu kabi huquqlarni o‘z ichiga olgandir.

Bizning Konstitutsiyamiz nafaqat yuridik hujjat, balki u milliy mafkuramizning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy asosini tashkil etuvchi umuminsoniy g‘oyalarga xizmat qiladi.

Davlat va jamiyat rivojlanishining muhim yo‘nalishlarini va ularning tuzilishlarini belgilab beradigan, tartibga keltiradigan oliy yuridik hujjat konstitutsiyadir.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hamda rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi jahondagi yirik siyosatshunoslar-ekspertlar tomonidan xalqaro me‘yorlarga to‘la javob beradigan mukammal hujjat sifatida tan olingan.

Xalq manfaatlarini kafolatlovchi Bosh Qomusimiz boshqa yangi mustaqil davlatlar konstitutsiyalaridan tubdan farq qilib, o‘tish davrigagina mo‘ljallanmasdan, balki davlat va jamiyat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini belgilab beruvchi dasturiy hujjat sifatida ham yuksak e‘tiborga sazovordir.

KONSTITUTSIYA – YANGI MILLIY O‘ZBEK DAVLATCHILIGI ASOSI

Yer yuzidagi barcha xalqlar azal-azaldan erkin, ozod, o‘z huquqlariga ega bo‘lgan holda yashashga intiladi. XX asrga kelib, inson erkinliklari va huquqlari dolzarb masalaga aylandi. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi kishilik jamiyati tarixida muhim hodisa bo‘ldi.

Insonning fuqarolik va siyosiy huquqlari bilan bog‘liq umum e‘tirof etilgan bunday qoidalarga demokratik jamiyat barpo etish yolida intilayotgan dunyodagi har bir davlat hurmat bilan qaraydi. Dunyodagi barcha xalqlar o‘z Konstitutsiyalarida inson huquqlarini aks ettirishga harakat qiladilar. O‘zbekiston Konstitutsiyasi ham Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining deyarli barcha qoidalarini o‘zida aks ettirgan.

Shuning uchun O‘zbekiston Konstitutsiyasini inson huquqlari bo‘yicha o‘ziga xos o‘zbek deklaratsiyasi deyish mumkin.

Konstitutsiya barcha davlatning asosiy qomusidir. Bu asosiy qonunda har bir davlatning nomidan tortib, fuqarolarining huquqlari, erkinliklari, burchlari, davlat organlari, ularning tizimi va hokazolar to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar o‘z aksini topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr Oliy Majlisning XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiyamiz 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iboratdir.

Bugun kechayotgan tinch va osuda hayotimizning, ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizning, xalqaro maydonda ortib borayotgan obro‘ e‘tiborimizning negizida Konstitutsiyamiz belgilab, muhrlab bergan qonuniy va huquqiy asoslar turgani va ularning og‘ishmay hayotga tatbiq etilayotgani bejiz emasdir.

Ma’lumki, dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech bir odam o‘z ijtimoiy – shaxsiy hayotini,

o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi.

Boshqacha aytganda, ular kundalik hayotida Konstitutsiya belgilab bergan qoida va huquqlarga tez-tez murojaat qilib turadi. Konstitutsiyaga o'zining tayanchi va suyanchi deb qaraydi.

Ming afsuski bu sir emas ko'pchiligimiz Konstitutsiyaning ma'no mazmunini yaxshi bilmaymiz, uni sinchiklab o'rganmaymiz. Agar Konstitutsiyaning mohiyatiga kirib borsak, mag'zini chaqsak, bugun oldimizda turgan ko'pgina savollarga, muhim muammolarni yechishda javob topishimiz mumkin.

Bu fikr tasdig'i tariqasida bir misol keltirmoqchimiz.

Sho'ro davridagi sobiq O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida inson manfaatlaridan davlat manfaatlarining ustunligi qonunlashtirib qo'yilgan edi. Bugungi Asosiy qomusimizda esa davlat ham, jamiyat ham avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustivor tamoyil sifatida aniq belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiya nafaqat bugungi kunning qomusi, balki u ertangi kunimiz, qurayotgan jamiyatimiz istiqbollari aniq beruvchi hujjat, kelajak yo'limizni yoritib turuvchi mayoqdir. Konstitutsiya jamiyat hayotining poydevori, mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va millatlararo totuvlikning asosidir. Uning kechayotgan kunimizga ta'sirini, ozodligimiz, erkinligimizning huquqiy kafolati ekanini shu muqaddas zaminda yashayotgan har birimiz sezib, his etib turibmiz.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi eng ilg'or mezonlar asosida ishlab chiqilganini jahon tan olmoqda. Konstitutsiya yaratilishida uchta asosiy manbaga: birinchidan, milliy huquqiy merosimizga, ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlarga, uchinchidan, xorijiy mamlakatlarning tarixiy va zamonaviy Konstitutsiyalari tajribasiga tayanilgan.

Bizning Konstitutsiyamiz O'zbekistonnig mustaqillik qomusi hisoblanadi. Chunki u davlatimiz mustaqilligini huquqiy kafolatlaydigan hujjat bo'lib, uning birinchi bobi mamlakatimiz-

ning davlat suverenitetini e'tirof etishdan boshlanadi. Ikkinchidan asosiy qonunimiz–milliy Konstitutsiya. Chunki unda milliy g'oya, milliy istiqlol mafkurasi aks etgan. Uchinchidan Konstitutsiyamiz milliy davlatimizning huquqiy asosi yaratildi.

Biz qonun ustivorligiga erishgandagina o'zimiz uchun maqsad qilib qo'ygan adolatli erkin jamiyat, farovon hayot barpo etishimiz mumkin. Shunday ekan, jamiyat hayotining mezonini bo'lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga yetib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz dardkor.

“...Men Konstitutsiyani bolalar bog'chasidan boshlab o'rganishni, maktablarda darslik tariqasida o'qitishni, oliy o'quv yurtlarida maxsus kurs sifatida o'rgatishni barcha mutasaddi rahbar va tashkilotlarimizga topshiriq tariqasida aytmoqchiman”,- degan edi Prezident Islom Karimov.

Har bir fuqaro o'zligini, qadr-qimmatini to'la anglashi, ayni vaqtda boshqalarning ham haq-huquqlarini e'zozlashi yuksak ma'naviyatdir. Bunga erishish uchun huquqiy ma'naviyatning mavqei juda muhim. Huquqiy ong, huquqiy ma'naviyat, huquqiy madaniyatning asosi Konstitutsiyadan iborat. Konstitutsiya huquqiy savodxonlikning alifbosi desak ham bo'ladi. Uni o'rganishni yo'lga qo'yish uchun har bir fuqaro unga ega bo'lishi, har bir xonadonda uning qadrlanishini ta'minlashdan boshlash zarurdir. Shuningdek, maktabgacha tarbiya muassasalarida, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yosh avlod, hamda talabalar, o'smirlarning Konstitutsiya to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish, mustahkamlash joizdir.

Jamiyatda qonun ustivorligini ta'minlashdek, mas'uliyatli va murakkab ishlarni to'la, sifatli va izchillik bilan amalga oshirishimiz, binobarin Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlarigek, “Jamiyat hayotining mezonini bo'lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga etib borib, hayotimizning, doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz dardkor”.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi kunini bayram qilishni tashkil etish bo‘yicha o‘ziga xos an‘analar paydo bo‘lmoqda .

Prezidentimiz I.Karimovning farmonlariga muvofiq mustaqillik bayrami arafasida fidokorona mehnati, sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, ishlab chiqarish va ma‘naviyatni yuksaltirish borasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun turli soha xodimlari Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Konstitutsiya bayrami arafasida esa Prezidentimiz Oq-saroy qarorgohida ana shu mukofotlarni tantanali topshiradi.

An‘anaga ko‘ra 7-dekabr Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun arafasida poytaxtimizdagi muhtasham “Turkiston” saroyida o‘tkaziladigan tantanali marosimga mamlakatimizning taniqli siyosat va jamoat arboblari, madaniyat va san‘at namoyandalari, poytaxt jamoatchilik vakillari, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari yig‘ilishadi.

Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Konstitutsiya bayrami arafasida kelayotgan yangi yilga qanday nom berilganligini ham e‘lon qiladi, shu jumladan 1999-yil “Ayollar yili”, 2000-yil “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yil “Onalar va bolalar yili”, 2002-yil “Qariyalarni qadrlash yili”, “2003-yil “Obod mahalla yili”, 2004-yil “Mehr muruvvat yili”, 2005-yil “Sihat-salomatlik yili”, 2006 yil esa “Homiylar va shifokorlar yili” deb e‘lon qilingan. Bu yillarning nomlanishida o‘zgacha mazmun mohiyat bor. Bularning zamirida xalqning manfaatlari yotadi. Shuning uchun ham yurtboshimiz har kelayotgan yangi yilga nom berib, uning xalqimiz manfaatlariga xizmat qilishini, xalq bundan manfaatdor bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tantanali marosim har yili san‘at ustalarining katta konsert dasturlari bilan yakunlanadi.

Konstitutsiya qabul qilingan kun 8-dekabr dam olish kuni deb belgilangan bo‘lib, u umumxalq bayrami sifatida har yili nishonlanib kelinmoqda.

BUYUK ALLOMALARNING KONSTITUTSIYA
TO'G'RISIDAGI FIKRLARI

Konstitutsiya idoralar izchilligini, ayniqsa, davlat idoralari izchilligini tartibga soladi.

Arastu

Qonunlar kishilarning hatti harakatlarida namoyon bo'ladi xolos, ammo ular tomonidan yaratilmaydi. Qonunlar o'zining ilohiy ibtidosiga ega, insonning vazifasi esa ularning xaqiqiy qoidalarini talablarini ochib berishdan iboratdir.

Aflotin

Hur O'zbekistonning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish jumhuriyatimizning yangidan tug'ilishidir, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir.

I.Karimov

Tabiiyki, har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya xalqning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsulidir.

I.Karimov

Bizning Konstitutsiya haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan hujjatdir, u dunyo miqyosida ham har qanday ilg'or davlat Konstitutsiyasi bilan bemaol kuch sinasha oladi.

I.Karimov

Odam hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi.

I. Karimov

Qulda burch bo'lishi mumkin emas, burchga erkin insongina ega bo'ladi.

Gegel

U yaxshi davlatning fuqorosi bo'lganligi bilangina individ o'z huquqiga erishadi.

Gegel

Har bir tuzilma davlat mo'tadilligi bilan farqlanadi, qonunlar o'z tartibi bo'yicha bajariladi. Bu qonundan chetga chiqilsa, har bir qoida ziddiyatlar ob'ektiga aylanadi. Bu do'stona munosabatlarning buzilishiga, razolat va tajribasizlik sabab bo'ladi, zero har bir davlatning asosini a'zolari qonun oldida teng bo'lgan jamiyat birligi va fikri hisoblanishi aniqlangan.

Devoni Ahloqi Jaloliy

Qoidalarning aniq va mukammalligi o'ziga xos tuzilishi bilan alohida ajralib turadigan ushbu Konstitutsiya o'zbek jamiyati va sohalarini tartibga soladi. U dunyodagi eng maqbul tuzilishga ega Konstitutsiyalardan biridir.

Donald S.Karloyl.

Erkinlik bu bekorchilik emas, balki o'z vaqtiga erkin egalik qilish va o'zi uchun kasb turini tanlash, qisqasi, erkin bo'lish bu bekorchilik qilib yurish emas, balki nimani qilish keragu, nimani qilmaslik kerakligini shaxsan hal qilishdir.

Jan de Labryuyer

Qonunchilik hokimiyati – davlatning yuragi, ijroiya hokimiyati uning miyasi.

Jan- Jak Russo

Insoniy bo'lmasdan, adolatli bo'lish mumkin emas.

Lyuk Vovenarg

Kim qonundan ham qattiqqo'lroq bo'lsa, o'sha zolim hukmdordir.

Lyuk Vovenarg

Erkinlik va tenglik hadsiz baxt saodatdirki, u Fransiyaning mulki bo'lib qolmaydi.

Tomas Peyn

Hokimiyatni suiste'mol qilish imkoniyati bo'lmasligi uchun, shunday tartib Qonun topishi kerakki, unda turli xil hokimiyatlar bir-birlarini tiyib turish imkoniyatiga ega bo'lsinlar.

Sh. Montesk'e

Erkinlik – bu qonunlar yo'l qo'ygan hamma narsani qilish huquqidir. Agar fuqaro mazkur qonunlar taqiqlaydigan

narsalarni qila olganda edi, unda uning erkinliklari bo‘lmas edi, chunki xuddi shu narsani boshqa fuqarolar ham qilgan bo‘lardilar.

Sh. Montesk’e

Eng beshafqat, zolimona hukumronlik–qonuniylik panohida va adolat bayrog‘i ostida yuz beradiganidir.

Sh. Montesk’e

Tinchlikda yashamoq lozim – insonning dastlabki tabiiy qonuni shunday.

Sh. Montesk’e

Ayni qonunlar yordamida shunday qilmoq kerakki, toki boylik ham kambag‘allik kabi og‘ir bo‘lsin.

Sh. Montesk’e

Befoyda qonunlar zarur qonunlarni zaiflashtiradi.

Sh. Montesk’e

Adolatning bir surati bor, zulmning esa mingta.

Qozi Ahmad G‘afforiy

Erkinlik faqat qonularga tobe bo‘lishdadir
SIZ QONUNNI BILASIZMI?

Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar

Tanlovning maqsadi kitobxonlarni Konstitutsiyaning mohiyati, u asosida tuzilgan qonun va farmoyishlarni, fuqarolar o‘z huquq va burchlarini to‘liq anglashiga, Konstitutsiya haqidagi manbalarga qiziqishlarini oshirishdan iborat.

Tanlovni o‘tkazishdan oldin faol kitobxonlardan 2 ta guruh tuziladi, guruh a‘zolari 6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Guruhga asosan maktab, litsey, kollej o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalari, yosh huquqshunoslar kiritilishi mumkin. Tanlov tashkilotchilari bilimdonlarga beriladigan savollarni tuzib chiqadilar. So‘ngra shu savollardan tanlab har ikki guruhga mo‘ljallab qo‘yiladi. Bellashuvga tayyorlanish jarayonida ishtirokchilar o‘sha savollarga tegishli adabiyotlarni o‘qib chiqishlari zarur.

Bilimdonlar e'tiborini Konstitutsiyaning davlat siyosatidagi roli va uning mohiyati berilgan adabiyotlarga, u haqidagi maqola va risolalarga, ilmiy nashrlarga, davlat siyosatining yirik vakillari asarlariga, mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qaror, qonun va farmoyishlarga, huquqshunoslik manbalari va darsliklarga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jahon mamlakatlari Konstitutsiyalarinig elektron versiyalariga qaratish lozim.

Bellashuv o'tkaziladigan joyda Konstitutsiyaga oid adabiyotlar, qonun va qarorlardan namunalar, gazeta, jurnallardan ko'rgazma tashkil qilishni tavsiya etamiz.

Quyida bellashuvga qo'yiladigan savollardan namunalar keltiramiz. Shunga qarab kutubxonachilar bilimdonlarning qanday adabiyotlardan foydalanishlarini bilib oladilar.

1. Dunyo tajribasida dastlabki Konstitutsiya qachon va qayerda qabul qilingan?

(Dastlabki Konstitutsiya 1787-yil AQSHda qabul qilingan)

2. Konstitutsiyaning lug'aviy ma'nosini ayting?

(Konstitutsiya lotincha (Constitutsiya) degan so'zdan olingan bo'lib, u "tuzish", "tuzuk", "tuzilish", "yaratish", "o'rnatish" degan ma'nolarni bildiradi).

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Majlisning XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan).

4. Konstitutsiyamiz nechta bo'lim, nechta bob va nechta moddadan iborat?

(Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat).

5. Mamlakatimizda qonun ishlab chiqaruvchi organ qanday nomlanadi?

(Qonun ishlab chiqaruvchi organ Senat deb nomlanadi).

6. Senat vazifasiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi, bu palatalarning nomini ayting?

(Quyi palata, yuqori palata).

7. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar nechta konstitutsiya qabul qilingan va qaysi yillarda?

(Sho‘rolar hukmronligi davrida mamlakatimizda 10 ga yaqin konstitutsiya joriy qilingan: Ular TASSRning 1918 – 1920 yillardagi, Xorazm va Buxoro XSRning 1920 – 1921 yillardagi, O‘zbekiston SSRning 1927, 1937, 1979 yilgi Konstitutsiyalaridir).

8. Konstitutsiyamizning bo‘limlarini sanab o‘ting?

(1-bo‘lim: Asosiy prinsiplar, 2-bo‘lim: Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, 3-bo‘lim: Jamiyat va shaxs, 4-bo‘lim: Ma‘muriy hududiy va davlat tuzilishi, 5-bo‘lim: Davlat hokimiyatining tashkil etilishi, 6-bo‘lim: Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi).

9. Konstitutsiyasi yo‘q bo‘lgan davlatlar bormi? Bulardan misol keltiring.

(Bu davlatlarga Angliya va Isroilni misol qilib keltirish mumkin).

10. Isroilda Konstitutsiya vazifasini qanday hujjat bajaradi?

(Isroil Qonunlar to‘plami bajaradi).

11. Konstitutsiyaning XI-bob 41-moddasi nimaga bag‘ishlanadi?

(41-modda: Har bir inson bilim olish huquqiga ega, bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi).

12. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon va qaerda qabul qilingan?

(Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil BMT tomonidan qabul qilingan).

13. Inson huquqi nima?

(Inson tug‘ilishidan to umrining oxirigacha huquq va erkinliklarining berilishiga inson huquqlari tushiniladi. Inson huquqlari davlat tomonidan ruxsat etilgan, man etilgan yoki uning

o'z hohishi bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan huquqlardir).

14. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha qanday vakillik organi ish yuritadi?

(Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Oliy Majlisning Ombudsman vakili ish olib boradi).

15. Saylov tizimi Konstitutsiyaning qaysi bobida berilgan?

(Saylov tizimi Konstitutsiyaning XXIII-bob 117-moddasida berilgan.)

16. O'zbekistonda fuqarolarga necha yoshdan saylash huquqi belgilangan?

(Saylash huquqi 18 yoshga to'lgan fuqarolarga beriladi).

17. O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi qanday?

(umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylov tizimi o'tkaziladi).

18. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida Konstitutsiyaning nechanchi moddasida berilgan?

(Konstitutsiyaning 67-moddasida).

19. Fuqarolarning burchlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bobida berilgan?

(Fuqarolarning burchlari Konstitutsiyaning XI-bobida berilgan).

20. Konstitutsiya va qonunning ustunligi O'zbekiston Respublikasi qaysi moddalarida berilgan?

(Konstitutsiyaning 15-16 moddalarida berilgan).

KONSTITUTSIYA – QONUNLAR KALITI

Munozara uchun mavzular

1. Sizningcha Konstitutsiya?
2. Konstitutsiya bosh qomusimiz.
3. Konstitutsiya qonunlar kaliti-mi?
4. Adolatli qonunning ustunligi huquqiy davlat prinsipidir.
5. Qomusim or nomusim.

KONSTITUTSIYA MENING TAQDIRIMDA

Davra suhbat

1. Konstitutsiya xalq tafakkuri mahsuli.
2. Konstitutsiya va inson erkinligi.
3. Konstitutsiyada ayollar huquqining o'ri.
4. Konstitutsiya – buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.
5. Inson huquqlari oliy qadriyatdir.
6. Qomusimiz – baxtimiz.
7. O'zlikni anglamoq – Konstitutsiyani bilishdan boshlanadi.
8. Konstitutsiya yoshlar nigohida.

KONSTITUTSIYA – HUQUQIY DAVLAT QURISHNING ASOSI

nomli ko'rgazmani tashkil etish uchun materiallar

Tavsiya etilayotgan kitob ko'rgazmasining maqsadi, kutubxonada o'tkaziladigan tadbirlarni to'ldiradi. Ko'rgazma quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

1. Konstitutsiya – taraqqiyot garovi

Bu bo'limga Konstitutsiyaning davlat taraqqiyotiga bag'ishlangan adabiyotlar qo'yiladi.

2. Konstitutsiya va qonunning ustunligi.

Bu bo'limga O'zbekiston Respublikasida chiqayotgan qonun va farmoyishlarga berilgan sharhlar to'g'risidagi nashrlar (gazeta, jurnallar) qo'yiladi.

3. Konstitutsiya – inson huquqlari qomusi.

Bu bo'limga inson huquqlarini himoya qiluvchi hujjatlar, Oliy Majlis tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar namunasi qo'yiladi.

Kutubxonalarda o‘tkazishi mumkin bo‘lgan tadbirlar
turkumi

Ilmiy-amaliy konferensiya

1. “Qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezonini bo‘lsin”

2. “Konstitutsiya – qonun va adolat ustuvorligining hayotbaxsh manbai”

3. “Konstitutsiya adolat ko‘zgusidir”

4. “Konstitutsiya – yo‘limizni yoritib turuvchi mayoqdir” kabi mavzularda.

“Konstitutsiya va biz”, “Qomusimiz – baxtimiz”, “Qonun ustuvorligi” kabi mavzularda adabiyotlar ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Kitobxonlar konferensiyasi

1. “Konstitutsiya yoshlar hayotida”

2. “Buyuk istiqlol qomusi”

3. “Konstitutsiya huquqiy davlatning poydevoridir”

4. “Huquqimiz va burchimiz” kabi mavzularda.

“Konstitutsiya haqiqat sari boshlovchi yo‘ldir”, “Qonunni bilgan qoqilmas”, “Huquqni anglamoq o‘zlikni anglamoqdir” kabi mavzularda adabiyotlar ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Ilmiy amaliy seminar

1. “Konstitutsiya – huquqiy davlatning milliy modeli”

2. “Konstitutsiya adolatning bosh mezonidir”

3. “Konstitutsiya – inson hayotining huquqiy kafolati” kabi mavzularda.

“Huquq erkinligi – saodat kaliti”, “Huquqiy madaniyat taraqqiyot omili” kabi mavzularda adabiyotlar ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Savol-javob kechasi

1. “Asosiy qonun, u qanday bo‘lishi kerak?”

2. “O‘z huquqingizni bilasizmi? Burch va majburiyatlaringizni-chi?”

3. “Konstitutsiyani bilasizmi?” kabi mavzularda.
“Qomusimiz sharaf ko‘zgidir”, “Konstitutsiya va din”,
“Konstitutsiya va yoshlar” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va
ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Bilimdonlar bellashuvi

1. “Konstitutsiya – huquqiy bilimdonlik kaliti”
2. “O‘zbekiston qomusi odil qomus”
3. “Biz huquqimizni bilamizmi?”
4. “Qonun va zamon” kabi mavzularda
“Qomusimiz faxrimiz”, “Konstitutsiya baxtimiz qomusi”,
”Qonunlar qonuni” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘r-
gazmadagi adabiyotlar obzori.

Davra suhbatlari

1. “Qadryatlarimizning qonunchilikdagi ifodasi”
2. “Qonun va zamon”
3. “Yoshlarimizning huquqiy madaniyati” kabi mavzularda.
“Qonun – hayotning yo‘ldoshi”, “Qonun va biz”, “Qonun
ijodkorlari” kabi mavzularda adabiyotlar ko‘rgazmasi va
ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Munozara kechasi

1. “Qonun ustuvor – jamiyat barqaror”
2. “Qomusli el – nomusli el
3. “Sening haq-huquqing bolajon” kabi mavzularda.
“Qomusimiz yo‘lchi yulduzimiz”, “Konstitutsiyani anglash
hayotiy ehtiyoj”, “Konstitutsiya hayotiy hujjat” kabi mavzularda
adabiyotlar ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Uchrashuv kechasi

I. Davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lgan
huquqshunoslar bilan

- | | |
|------------------|------------------|
| 1. S. Rajabova | 4. M. Aminjanova |
| 2. Yu. Mutaliyev | 5. Q. Nodirov |
| 3. Yo. Safarov | 6. B. Ibodov |

I. Huquqshunos olimlar, professor, fan doktorlari bilan

- | | |
|----------------|---------------------|
| 1. M. Rustamov | 4. B. Samarxo‘jayev |
|----------------|---------------------|

2. R. Roʻziyev
3. Z. Muqimov

5. B. Zohidov
6. R. Qodirov

Xotira va qadrlash soati

1. “Hadicha Sulaymonovani eslab...:huquqshunos olim, davlat va jamoat arbobi.”

2. “Fiqh maktabining buyuk nomayondasi Burhoniddin Margʻinoniyni xotirlab”

3. “Huquq ilmining fidoyisi Gʻafur Abdumajidovning nurli yoʻli”

4. “Xalqimiz fiqhshunos olimi Imom Gʻazzoliyni ardoqlaydi”

5. “Fiqh maktabining iftixori Halima Muhitdinova” kabi mavzularda

“Ulugʻ nom sohiblari”, “Ibratli umr sahifalari”, “Mangulik timsollari” kabi mavzularda adabiyotlar koʻrgazmasi va koʻrgazmadagi adabiyotlar obzori.

Ogʻzaki jurnal

1. “Konstitutsiya – islohatlarning sobit qadami”

2. “Qonuniy himoya bosh mezonimizdir”

3. “Qonunlar xalq tayanchi”

“**Konstitutsiya – kelajagimiz mayogʻi**” rukni ostida kartoteka tuzish va kartotekani Konstitutsiya haqidagi materiallar bilan boyitib borish.

“**Konstitutsiya kelajagimiz mayogʻi**” rukni ostida mavzuli papkalar tashkil qilish.

Qatnashuvchilar: joylardagi “Maʼnaviyat va maʼrifat” jamoatchilik markazlari, “Huquqiy markazlar” “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining joylardagi boʻlimlari, huquqshunoslar, prokuratura xodimlari vakillari, dinshunoslar, pedagoglar, yozuvchi va shoirlar jurnalistlar hamda keng kitobxonlar ommasini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Resp. Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan (O'zbekiston Resp. 1993-yil 28-dekabrda kiritilgan o'zgartirishlar bilan).-T.: O'zbekiston, 2001.-38 b.

Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati // Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.-T.2.-T.: O'zbekiston, 1996.-B.92-116.

Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir: Ma'ruzalar, nutqlar, suhbatlar.-T.: O'zbekiston, 1995.-278 b.

Karimov I. Maqsadimiz tinchlik, barqarorlik, hamkorlik.-T.: O'zbekiston, 1995.-48 b.

Karimov I. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida.-T.6.-T.: O'zbekiston, 1998.-432 b.

Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.-T.10.-T.: O'zbekiston, 2002.- 432 b.

Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.-326 b

Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura: Nutqlar, maqolalar, suhbatlar.-T.: O'zbekiston, 1993.-261 b.

Karimov I. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi.-T.: O'zbekiston, 1996.-486 b.

Abdusalomov M. Mustaqil mamlakatning huquqiy asosi // Toshkent oqshomi.-2004.-2 dek.

Asosiy qomusimiz targ'ibotlari (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida) // Toshkent haqiqati.-2004.-10 noyab.

Achilova N. Bosh qomus: Ayol huquqlari (Konstitutsiyamizda ayollarning siyosiy huquqlari) // Ishonch.-2004.-23 noyab.

Ahmedov E., Saidaminov Z. O'zbekiston Respublikasi: Qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 1998.-400 b.

Begmatov A. Konstitutsiya va milliy istiqlol g'oyasi: Konstitutsiya haqida // Xalq so'zi.-2004.-3 dek.

Boboyev X. Qahhorov A. Demokratik Konstitutsiyaning ijtimoiy-huquqiy qirralari.- T.: O'zbekiston, 2000.-22 b.

Bozorov U. Baxtimizning oliy qomusi // Muloqot.-2004.-№ 6.-B. 2-4.

Davlat va huquq asoslari: 9-sinf o'quvchilari uchun darslik.- T.: O'qituvchi, 1996.-200 b.

Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunos mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun / X.B Ismoilov. Z. M Boboyev.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005.-475 b.

Jabborov Sh. Konstitutsiya saboqlari.-T.: Yangi asr avlodi, 2002.-22 b.

Ziyoyev H. Tarix – o'tmish va kelajak ko'zgusi: Tarixning dolzarb masalalari /Mas'ul muharrir K. Normatov.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.-288 b.

Ibrohimov A. Biz kim, o'zbeklar...Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar / so'zboshi muallifi I. Qosimov.-T.: Sharq, 2001.-400 b.

Inson huquqlari bo'yicha halqaro shartnomalar: to'plam / Mas'ul muharrir A.H Saidov.-T.: Adolat, 2004.-520 b.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.-T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Adolat, 1998.-50 b.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi – O'zbekiston taraqqiyotining kagolati / Mas'ul muharrir M.Mirboboyev.-T.: Adolat, 2000.-64 b.

Konstitutsiya – huquqiy davlat qurishning asosi / Mas'ul muharrir S. T Husanov.- T.: Adolat, 1996.-183 b.

Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001.-160 b.

Mirzabekov A. Yoshlarning huquqiy tarbiyasi // Adolat.-2004.-26 noyab.

- Munavvarov Z. Inson huquqlari qomusi // Xalq so‘zi.-2004.-28 yanv.
- Muhamedov X. Asosiy qonun va o‘zbek milliy davlatchiligi an‘analari: Asosiy qonun (Konstitutsiya haqida) // Qonun himoyasida.- 2003.-№ 2.-B. 20-22.
- Nazarov U. Mustaqillik huquq demakdir.-T.: O‘zbekiston, 1998.-64 b.
- Ochilova G. Konstitutsiya va ekologiya.-Qarshi:Nasaf, 2002.-20 b.
- Po‘latov E. Huquq va erkinliklarimiz kafolati // Toshkent oqshomi.- 2003.-27 noyab.
- Rustamboyev M. Huquqni muhofaza qilish organlari: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.- T.: Zar qalam, 2005.-496 b.
- Saidov A. Ko‘chimov Sh. Qonunchilik texnikasi asoslari.- T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Adolat, 2001.-272 b.
- Sayitov E. Qomusimiz – baxtimiz // Toshkent haqiqati.-2004.-22 sent.
- Salomov B. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati.-T.: Adolat, 2000-144 b.
- Tansiqboyeva G., Muhammadjonov O. Konstitutsiya va biz.- T.: Adolat, 1998.-112 b.
- Xotin qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari: ommaviy yuridik ma’lumotnoma.-T.: O‘zbekiston, 2000.-256 b.
- O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi / Tuzuvchilar: X. Azizov va boshq.-T.: Sharq, 2001.-128 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni //Vatanparvar.- 2005.-26 mart.
- Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari /Mas’ul muharrir S. Olim. T.: Sharq, 2002.-240 b.
- Quvvatov N. O‘tish davri tafakkuri /Mas’ul muharrir M. Quronov.-T.:Ma’naviyat, 2002.-32 b.

Haydarov A. Ma'naviyat – huquqiy davlatning tayanchi
//Mas'ul muharrir: K. Normatov.-T.: Adabiyot va san'at
nashriyoti, 1999.-96 b.

Husanov O. Konstitutsiya muqaddas hujjat /Oliy mezonlar
// Jamiyat va boshqaruv.- 2004.-№ 4.-B. 4-5.

Husanov O. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari:
o'quv qo'll. / Mas'ul muharrir A Azizho'jayev.-T.: Sharq, 1996.-
80 b.

Mundarija

O‘zbek qomusi	3
Muqaddima	4
Haqiqat qomusi – Konstitutsiyaning tarixi	7
Konstitutsiya–yangi milliy o‘zbek davlatchiligi asosi	13
Buyuk allomalarning Konstitutsiya to‘g‘risidagi fikrlari ..	17
Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar.....	19
Munozara uchun mavzular.....	22
Davra suhbatlari	23
Adabiyotlar ko‘rgazmasini tashkil etish uchun materiallar	23
Kutubxonalarda o‘tkazishi mumkin bo‘lgan tadbirlar turkumi	24
Adabiyotlar	27

Bosishga ruxsat etildi 2006 yil yanvar
Bichimi 60x84 ¹/₁₆ nashr. t. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №

Toshkent sh., X.Sulaymonova ko'chasi, 33-uy
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
bosmasida chop etildi